Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida uzoq muddatli aktivlarga investitsiyalar, ularni hisobi va hisoboti hamda uning uslubiy asoslari, bosqichlari va asosiy yo'nalishlari tadqiq etilgan. Bu boradagi xalqaro tajriba o'rganilib, zarur taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, biologik aktivlar, investitsiyaviy kuchmas mulk, transformatsiya, moliyaviy hisobotni modernizatsiyalash.

Abstract: The article examines investments in long-term assets, their accounting and reporting, as well as its methodological foundations, stages and main directions in the process of harmonizing financial reporting with international standards in the economy of Uzbekistan. International experience on this issue is studied and the necessary proposals and recommendations are given.

Key words: international financial reporting standards, biological assets, investment property, transformation, modernization of financial reporting.

Аннотация: В статье рассматриваются инвестиции в долгосрочные активы, их учет и отчетность, а также ее методологические основы, этапы и основные направления в процессе гармонизации финансовой отчетности с международными стандартами в экономике Узбекистана. Изучен международный опыт по данному вопросу и даны необходимые предложения и рекомендации.

Ключевые слова: международные стандарты финансовой отчетности, биологические активы, инвестиционная недвижимость, трансформация, модернизация финансовой отчетности.

KIRISH

Keyingi yillarda respublikamizda buxgalteriya hisobi va audit sohasiga alohida e'tibor berilib, so'nggi yillarda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli Qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorni qabul qilishdan asosiy maqsad mamlakatimiz iqtisodiyotini jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotida keng qo'llanilayotgan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda korxonalar moliyaviy hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tayyorlash va taqdim qilishga ehtiyojlar paydo bo'lmoqda.

Moliyaviy hisobot – ichki va tashqi (mulkdorlar, investorlar, xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar, kreditorlar, davlat organlari va keng jamoatchilik) subyektlar bilan bo'ladigan munosabatlarda biznes tillashuvining muhim vositasidir.

Agar korxonalar buxgalteriya hisobotlarini tayyorlashda xalqaro standartlarga rioya qilmasa, bu ba'zi nomuvofiqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, bunday nomuvofiqliklar yuzaga kelmasligi uchun moliyaviy hisobotlarning yagona xalqaro standartlariga talab mavjud.

Bo'lajak xorijiy investor O'zbekiston tashkilotlari tayyorlagan hisobotlarni tushunmaydi, shuning uchun raqamlar to'g'ri aks ettirilganiga ishonmaydi. Moliyaviy hisobotlarni MHXSga tarjima qilish va audit o'tkazish juda qiyin, ko'p vaqt va mablag' talab qilishi mumkin.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy hisobotni takomillashtirishda qator iqtisodchi olimlarning hissasi katta. Xususan, xorijiy iqtisodchi olimlardan [Hermanson R. H., 1992], [Needles B., 2004] va boshqa tadqiqotchilar moliyaviy hisobotning nazariy-konseptual asoslari hamda aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning metodologik masalalari; moliyaviy instrumentlar va qo'shimcha moliyaviy hisobot (additional financial reporting) masalalari, moliyaviy hisobotning garmonizatsiyasi (harmonisation) masalalarini o'z ishlarida yoritib berganlar. Jumladan, [Astaxov V. P., 2011], [Kachalin V. V., 1998], [Kuter M. I., 2013], [Paliy V. F., 2008], [Sokolov Ya. V., 2009], [Getman V. G., 2012], [Drujilovskaya T. Yu., Drujilovskaya E. S., 2019] kabi olimlar MHXS'ni o'z mamlakatlarida qo'llash bilan bog'liq tadqiqotlarni olib berganlar.

Mamlakatimizda ham keyingi yillarda moliyaviy hisobot masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan, shuningdek, ilmiy maqolalar, monografiyalar va darsliklar chop etilgan. Bular qatoriga [Xasanov B. A., Nurmanov K. T., Hasanova R. B., 2021], [Sotivoldiyev A. S., Itkin Yu. M., 2002], [Tashnazarov S. N., 2019], [Urazov K. B., Vaxidov S. V., 2010], [Egamberdiyeva S. R., 2021] va boshqa mualliflarning izlanishlarini kiritish mumkin.

Mazkur olimlarning ishlarida uzoq muddatli aktivlar, tovar-moddiy boyliklar, majburiyatlar, daromad va xarajatlarni tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotda aks ettirishning metodologik masalalari chuqur tahlil etilgan. Shuningdek, [Dusmuratov R. D., 2013] va [Ibragimov A. K. va boshq., 2016] tomonidan tayyorlangan ilmiy ishlarda moliyaviy hisobotning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari o'rganilgan. I. Ochilov esa sug'urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish masalalarini tadqiq qilgan. [Tashnazarov S. N., 2019] o'z darsligida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalarini yoritgan.

Shuningdek, [Dusmuratov R. D., Tulayev U. I.] tomonidan tayyorlangan tadqiqot ishlarida moliyaviy hisobotning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari keng qamrovda o'rganilgan. I. Ochilov sug'urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish bilan bog'liq jihatlarni chuqur tahlil qilgan. M. Marpatov esa o'z maqolasida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalarini atroflicha ko'rib chiqqan.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda mamlakatimizda buxgalteriya hisobi me'yorlari hamda moliyaviy hisobotni tuzish qoidalari xalqaro standartlar talablariga moslashtirilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalari, o'quv qo'llanmalari va maqolalari tahlil qilindi. Shuningdek, statistik tahlil, jadvallarni analitik taqqoslash, guruhlash, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini hisoblash hamda ularni o'zaro solishtirish kabi uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ishtirok etadigan resurslar buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar deb e'tirof etilib, ular shartli ravishda uzoq muddatli (asosiy kapital) va joriy aktivlar (aylanma kapital) kabi guruhlarga ajratiladi. Bunday guruhlarga ajratishning asosini "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun" tashkil qiladi. Ushbu qonun kapital hisobining huquqiy konsepsiyasidir.

Aktivlarning uzoq muddatli va joriy aktivlar guruhlarga ajratilishi, ularning bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatidan olinadigan daromadlar bilan bevosita bog'likligi kapital hisobining iqtisodiy konsepsiyasini tashkil etadi.

Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi obyekt sifatidagi konsepsiyasini ishlab chiqishda, avvalambor, ularning iqtisodiy mohiyati asos qilib olinishi lozim.

Uzoq muddatli aktivlarni tan olish va hisobda aks ettirish keng ma'nodagi aktivlarning mohiyatini tadqiq qilish muammolari bilan bevosita bog'liqdir. Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi amaliyotida aktivlar korxonaga tegishli xo'jalik mablag'lari deb tan olingan va e'tirof etilgan. Ammo bu e'tirof asosan asosiy kapitalga taalluqli bo'lgan. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitidagi davrda uzoq muddatli aktivlar tarkibiga kiradigan buxgalteriya hisobining boshqa obyektlari ham paydo bo'lganki, ularning iqtisodiy mohiyati albatta asosiy kapitalning mohiyatidan farqlanadi. Jumladan, nomoddiy aktivlar, moliyaviy qo'yilmalar, uzoq muddatli debitor qarzi va muddati uzaytirilgan xarajatlar ham kiradi. Xalqaro standartlar asosida aktivlarni quyidagiga tasniflashini taklif etamiz(1-jadval).

Uzoq muddatli aktivlar korxonada faoliyatida uzoq muddat ishtirok etadi. Shulardan nomoddiy aktivlar bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmasa ham, bilvosita daromad olishga sababchi bo'lib muayyan iqtisodiy naf keltiradi.



Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar va investitsion mulk sifatida e'tirof etilayotgan aktivlar esa kelgusida daromad olish maqsadida kapitalni investitsiya qilishning yana bir yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Ushbu jihatlar uzoq muddatli aktivlarni tasniflash va tavsiflash asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan uzoq muddatli aktivlarning tasniflanishi yetarlicha o'rganilmagan.

Fikrlarni umumlashtirib shu narsani aytish mumkinki, uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlar asosida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini tahlil qilishda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga boshqaruv uchun zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilish maqsadida ularni hisobga olishda schotlar rejasiga investitsion mulk, biologik aktivlar, sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar uchun schotlar ochib ularni hisobini yuritishni yo'lga qo'yish lozim.

Bizning fikrimizcha, yuqorida bayon qilingan fikrlar, bir tomondan, uzoq muddatli aktivlar tarkibini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga uyg'unlashtirishga ko'maklashsa, ikkinchi tomondan, korxonalar faoliyatini tahlil qilishda ko'rsatkichlar tizimini tartibga solishni osonlashtiradi.

Uzoq muddatli aktivlar korxonalar faoliyatida ishtirok etadigan muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida mazkur iqtisodiy kategoriya yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Shuning uchun uning toifalarini aniqlovchi asosiy tavsiflarni har tomonlama ko'rib chiqish zarur.

1-jadval. Uzoq muddatli aktivlarning tasniflanishi va tavsiflanishi.

Tasnifi	Tavsifi	Tarkibi	
		Amaldagi	Taklif etilayotgan variant
Moddiy aktivlar	korxonalar faoliyatida bir yildan ortiq vaqt mobaynida ishtirok etadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira oladigan moddiy mablag'lar.	asosiy vositalar; uzoq muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar; kapital qo'yilmalar; o'rnatiladigan jihozlar.	asosiy vositalar; uzoq muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar; kapital qo'yilmalar; -o'rnatiladigan jihozlar; -investitsion mulk; -biologik aktivlar; -sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar.
Nomoddiy aktivlar	korxonalar faoliyatida bir yildan ortiq vaqt mobaynida ishtirok etadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira oladigan, identifikatsiyalanuvchi, moddiy buyumlashgan shaklga ega bo'lmagan aktivlar	patent; savdo markasi; tovar belgisi; dasturiy ta'minot; yerdan foydalanish huquqi; tashkiliy xarajatlar; franchayz; mualliflik huquqi; -gudvill;	
Moliyaviy aktivlar	Kelgusida foiz (dividend), ulush ko'rinishida daromad olish maqsadida boshqa korxonalar faoliyatiga bir yildan ortiq muddatga qo'yilgan mablag'lar	qimmatbaxo qog'ozlar; -avlod korxonalariga investitsiyalar; qaram xo'jaliklarga investitsiyalar; - xorijiy kapitali korxonalariga investitsiyalar.	
Muddati uzaytirilgan debitor qarzlari va kechiktirilgan xarajatlar	bir yildan uzoq muddatga uzaytirilgan debitorlik qarzlari;	uzoq muddatli ijaraga bo'yicha olinadigan to'lovlar; xodimlarning qarzlari bo'yicha to'lovlar; vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan daromad solig'i; kechiktirilgan qarzlari bo'yicha diskontlar.	
Moddiy aktivlar	korxonalar faoliyatida bir yildan ortiq vaqt mobaynida ishtirok etadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira oladigan moddiy mablag'lar.	asosiy vositalar; uzoq muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar; kapital qo'yilmalar; -o'rnatiladigan jihozlar.	asosiy vositalar; uzoq muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar; kapital qo'yilmalar; -o'rnatiladigan jihozlar; -investitsion mulk; -biologik aktivlar; -sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar.



Ko'pchilik iqtisodchilar uzoq muddatli aktivlarni ishlatish muddati 1 yildan ortiq bo'lgan aktivlar sifatida tasniflaydilar: uzoq muddatli kapital qo'yilmalar, nomoddiy aktivlar, asosiy vositalar, boshqa uzoq muddatli aktivlar. Bunday tarzda tasniflash buxgalteriya hisobi qoidalariga asoslanadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish ayrim xo'jalik yurituvchi subektlarni hisob yuritish majburiyatidan ozod qiladi. Lekin ushbu korxonalarda barcha foydalanuvchilar guruhlari uchun sifatli va ishonchli axborot shakllantirish zarurati avvalgidek, dolzarb bo'lib qolaveradi. Korxonalar hisob siyosati esa buni amalga oshirishga imkon beradigan asosiy hujjat bo'lib qolaveradi.

Moliyaviy hisobotni boshqaruvning muhim dastagi sifatida modernizatsiyalash deganda, moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmunini axborot foydalanuvchilar manfaatlariga muvofiqlashtirish, axborotlarga ishlov berish va ularni uzatishda eng ilg'or usul va uslublar hamda takomillashgan hisobot shakllarini joriy qilish tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobotni modernizatsiyalashda MHXSlarga bosqichma-bosqich o'tilmoqda.

Bizning fikrimizcha, dunyodagi moliyaviy hisob va moliyaviy hisobot jarayoni ilg'or tajribasidan kelib chiqib, transformatsion ishchi balans tuzish amaliyotiga o'tishimiz kerak. Ishchi balans schyotlarning qoldiqlarini transformatsion yozuvlar asosida moliyaviy hisobotning shakllariga o'tkazishni amalga oshiruvchi muhim jadval (registr) hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bosqichida ishchi balans va jadvallari yordamida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, foyda vazaralar hamda boshqa to'plam daromadlar to'g'risidagi hisobot, pul mablag'lari haqidagi hisobot, xususi kapitalning o'zgarishi to'g'risidagi hisobotlar tuziladi. Hisobotlar ijobiy auditorlik xulosasiga ega bo'lgandan so'ng top menejerlar tomonidan tasdiqlanadi va qaror qabul qiluvchilarga taqdimoti amalga oshiriladi.

Bizningcha, "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda "Investitsiyaviy kuchmas mulk" bandini quyidagi tarzda kiritishni tavsiya etamiz va ushbu qatorda aks ettirilgan Investitsiyaviy kuchmas mulklarni mohiyatini aniqroq ochish uchun analitik hisob yuritib, quyidagicha ma'lumotlarni aks ettirish lozim (2-jadval)

2-jadval¹.

Investitsion mulk turlari bo'icha hisobot.

t/r	Investitsion mulk turlari	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
		Ming sumda	Ming so'mda
1.	Odatdagi xo'jalik faoliyati doirasida qisqa muddatda sotish uchun emas, balki uzoq muddat davomida kapitalning qiymati oshishi uchun egalik qilinadigan yer.	2 000 000	2 000 000
2.	Kelgusida foydalanilish maqsadi aniqlanmagan egalikdagi yer.	200 000	200 000
3.	Tadbirkorlik subyekti tomonidan egalik qilinadigan hamda bir yoki bir necha operativ ijara shartnomalari asosida ijaraga berilgan bino.	1800 000	2 200 000
4.	Band bo'lmagan, ammo bir yoki bir necha operativ ijara bo'yicha ijaraga berishga mo'ljallangan bino.	1 200 000	1350 000
5.	Kelgusida investitsion mulk sifatida foydalanish uchun qurilayotgan yoki takomillashtirilayotgan mulk.	600 000	950 000
	Jami	5 800 000	6700 000

MHXSlar va ilg'or tajribalar asosida moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishi shart bo'lgan axborotlar qatoridan kelib chiqib, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun transformatsiya maqsadlarida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot shakli taklif etildi. Jumladan, ushbu hisobotning uzoq muddatli aktivlarga doir qismi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (4-jadval).

Har bir korxonalar o'zining hisob siyosatida bir davrdan ortiq xizmat qiladigan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki ma'muriy boshqaruv jarayonida foydalanadigan «mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar» tarkibini standart talablaridan kelib chiqib mustaqil belgilashlari kerak, deb o'ylaymiz. 5-son BHMS «Asosiy vositalar»da «mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar»ning xalqaro standartlarga muvofiq tarkibiy moddalarini keltirish hamda ishchi va mahsuldor hayvonlar hamda ko'p yillik o'simliklarni biologik aktiv sifatida tan olish tamoyillarini belgilovchi standart ishlab chiqish kerak. Axborot foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish hamda standartlar talablariga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda yoki

¹ mualliflar tomonidan taklif etilayotgan ishlanma



izohlar va tushuntirishlarda aks ettirilishi shart bo'lgan tarkibiy moddalar to'g'risida axborotlarga ega bo'lish maqsadida «Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar harakati to'g'risidagi» hisobot tuzilishi maqsadga muvofiq.

Taklif etilayotgan hisobot shaklida aktivlarning tasarruf etilishi, xatolarni to'g'rilash va qadrsizlanishidan zarar kabi mazmunan yangi ko'rsatkichlar aks ettirildi hamda ularni hisoblashning metodologik tartibi keltirildi. Bu esa hisobotlar va ularda aks ettirilayotgan ko'rsatkichlarni MHXSlariga muvofiqlashtiradi hamda axborot foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos keladi.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida tashkil etishga keng e'tibor qaratilmoqda. Shu boisdan hisob siyosatini tuzishda "Hisob siyosati, buxgalteriya baholaridagi o'zgarishlar va xatolar" 8-son BHXS talablariga rioya qilish maqsadga muvofiqdir.

Xo'jalik yurituvchi subektlarda hisob siyosatining beqam ko'st amal qilishi uchun u mukammal ishlab chiqilishi zarur. Mazkur maqolada hisob siyosatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar taklif etilgan. Xo'jalik yurituvchi subektlar rahbariyati yuqorida sanab o'tilgan omillarni inobatga olgan holda hisob siyosatini tuzsalar, mazkur subektlarda buxgalteriya hisobi ishlarining samarali yo'lga qo'yilishi va tadbirkorlik riskining pasayishi ta'minlanadi.

Ma'lumki, har qanday faoliyat, har qanday jarayon muayyan ketma-ketlik va aniq belgilangan tartib asosida tashkil etilsa, uning samaradorligi yanada oshishiga xizmat qiladi. Shu boisdan olib borilgan tadqiqotlar natijasida hisob siyosatini shakllantirish bosqichlari taklif etildi. Xo'jalik yurituvchi subektlar tomonidan hisob siyosatining mazkur bosqichlar asosida shakllantirilishi amalga oshirilsa, ularo'z oldilariga qo'ygan strategik va taktik maqsadlarga erishishni ta'minlaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizda bu borada ilmiy - tadqiqotlar olib borishni jadallashtirish lozim, chunki, mamlakatimiz jahon bozoriga shiddat bilan, dadil kirib bormoqda, bu esa iqtisodiyotimizni global bozor talablariga mos bo'lishini taqozo qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro va milliy standartlar talablariga muvofiq moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning asosiy (chiziqli) moddalariga tarkibiy quyi moddalarini ochish axborot foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos axborotlarni taqdim qilish imkoniyatini beradi. «Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar», tovar-moddiy zaxiralar, debitorlik va kreditorlik qarzlari hamda xususiy kapitalni tan olish, baholash, tasniflash va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish metodologiyasini takomillashtirish asosida «Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot»ning shakli ishlab chiqilganligi uning zarur va kerakli axborotlarni qamrab olishi hamda moliyaviy holatga haqqoniy baho berish imkoniyatlarini kengaytiradi va qabul qilinayotgan qarorlarning sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Ichki axborot foydalanuvchilar manfaatidan kelib chiqib, «Mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar harakati to'g'risidagi hisobot», "Investitsion mulk turlari bo'icha hisobot" va "Biologik aktivlar to'g'risida hisobot" shakllarini joriy etish hamda hisobotga «mulk: yer, bino, mashina va asbob-uskunalar», «Investitsion mulk (turlari bo'icha)», va «Biologik aktivlar»ning qiymati kelib tushishi, modernizatsiya va rekonstruksiya, texnologik qayta jihozlash, tasarruf etilishi, qadrsizlanishi va boshqa omillar hisobidan o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiritilganligi uzoq muddatli moddiy aktivlardan samarali foydalanishni nazorat qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tashnazarov S.N. (2019). Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o'quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent, 555 b.
2. Астахов, В. П.(2011) Бухгалтерский (финансовый) учет: учебное пособие для вузов / 9-е изд. - Москва : Издательство Юрайт, 955 с.
3. Hermanson R. H. (1992). Accounting principles: Chapters 1-14, Volume Edition 5 Publisher Irwin, 1992 Length 473 pages.
4. Кутер М. И.(2013). Введение в бухгалтерский учет: учебник / Краснодар: Просвещение-Юг, 512 с.
5. Нидлз Б.(2004). Принципы бухгалтерского учета: Пер. с англ. / Б.Нидлз, Х.Андерсон, Д.Колдуэлл; Гл. ред. серии Я.В.Соколов - М.: Финансы и статистика, 496с.
6. Гетьмана В.Г.(2012). Международные стандарты финансовой отчетности: учебник /под ред. В.Г. Гетьмана. 2-е изд., перераб. и доп. М.: ИНФРА-М, 2012.
7. Дружиловская Т.Ю., Дружиловская Э. С.(2019). Модернизация финансовой отчетности организаций в условиях цифровой экономики. Учет. Анализ. Аудит. Ст.50–61.
8. Качалин В.В. (1998). Финансовый учет и отчетность в соответствии со стандартами GAAP| учебное пособие. Стр. 400
9. Палий В.Ф. (2008). Международные стандарты учета и финансовой отчетности: Учебник. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: ИНФРА-М, 512 с.



10. Соколов Я.В.(2009). История бухгалтерского учета (монография, в соавторстве с Соколовым Я.В. 3 издания), (3-е издание), М. учебник / изд-во «Магистр»,
11. Хасанов В.А., Nurmanov K.T., Hasanova R.B. (2021). Zamonaviy boshqaruv hisobi. Darslik/ T.: “LESSON PRESS” MCHJ nashriyoti, 413 b.
12. Сотиволдиев А.С., Иткин Ю.М(2002). Замонавий бухгалтерия ҳисоби.- Т.: Ўзбекистон БАМА нашр. I-II-том. 122 б.
13. Уразов К.Б., Вахидов С.В. (2010). Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари. Дарслик, 445 б.
14. Egamberdiyeva S.R. (2021). Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. Qarshi. «Intellekt» nashriyoti, 573 bet.
15. Dusmuratov R.D.(2013). Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 476-b.;
16. A.K. Ibragimov va b. (2016) Amaliy boshqaruv hisobi.–Toshkent: Iqtisodiyot,;
17. Egamberdiyeva S.R. Xalqaro standartlar asosida qishloq xo'jaligida aktivlarni tasniflash, ularning hisobi va hisobotini takomillashtirish. 2024-yil, may. Maxsus son. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. 71-75 bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>